



**ITALYAN VA O‘ZBEK ERTAKLARIDA ARXETIPLAR, QAHRAMONLIK MODELI VA
MILLIY MENTALITET IFODASI.**

Ergashova Baxora Sayfillo qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ergashova.baxoram@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek va italyan xalq ertaklaridagi universal arxetiplar qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda olimlarning arxetiplar nazariyasiga tayanilgan holda, ikki xalqning qahramonlik modellari va ularning milliy mentalitet bilan bog‘liqligi yoritilgan. O‘zbek ertaklaridagi jamoaviylik va axloqiy mezonlar, italyan ertaklaridagi individualizm va pragmatizm bilan solishtiriladi.

Kalit so‘zlar: arxetip, qahramonlik modeli, mentalitet, o‘zbek ertaklari, italyan ertaklari, Soya, Donishmand, kollektiv g‘ayrushuriylik.

**АРХЕТИПЫ, ГЕРОИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ И ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО
МЕНТАЛИТЕТА В ИТАЛЬЯНСКИХ И УЗБЕКСКИХ СКАЗКАХ**

Эргашова Бахора Сайфиллоевна

исследователь Узбекского государственного университета мировых языков

ergashova.baxoram@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится сравнительный анализ универсальных архетипов в узбекских и итальянских народных сказках. В исследовании, опирающемся на теорию архетипов, освещаются модели героизма двух народов и их взаимосвязь с национальным менталитетом. Коллективизм и этические нормы в узбекских сказках сопоставляются с индивидуализмом и прагматизмом в итальянских сказках.

Ключевые слова: архетип, модель героизма, менталитет, узбекские сказки, итальянские сказки, Тень, Мудрец, коллективное бессознательное.

**ARCHETYPES, HEROIC MODELS, AND MANIFESTATIONS OF NATIONAL
MENTALITY IN ITALIAN AND UZBEK FOLKTALES**

Ergashova Bakhora Sayfillo kizi

Researcher at Uzbekistan State University of World Languages

ergashova.baxoram@gmail.com

ANNOTATION

This article presents a comparative analysis of universal archetypes in Uzbek and Italian folktales. Based on the theory of archetypes, the study highlights the heroic models of the two nations and their connection to the national mentality. The collectivism and moral standards found in Uzbek tales are compared with the individualism and pragmatism characteristic of Italian tales.

Keywords: archetype, heroic model, mentality, Uzbek folktales, Italian folktales, The Shadow, The Sage, collective unconscious.

KIRISH

XXI asrda globallashuv jarayonlari, madaniyatlararo muloqotning jadallashuvi va identifikatsiya masalalarining dolzarblashuvi sharoitida xalq og‘zaki ijodini ilmiy jihatdan qayta talqin etish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. UNESCOning nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishga oid konsepsiyasida og‘zaki ijod namunalari jamiyatning tarixiy xotirasi va mental modelini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Xususan, xalq ertaklari axloqiy me‘yorlar, ijtimoiy rollar va qadriyatlar tizimini avloddan avlodga uzatuvchi barqaror madaniy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy folklorshunoslikda ertaklarni faqat badiiy matn sifatida emas, balki madaniy-antropologik va psixologik hodisa sifatida o‘rganish

tendensiyasi kuchaymoqda. O'zbek folklorshunosligida M. Afzalov o'z tadqiqotlarida xalq ertaklarining janriy xususiyatlari va ularning hayotiy-ijtimoiy ildizlarini yoritib, ertaklarni xalq dunyoqarashining badiiy modeli sifatida talqin etgan. H. Zarifov esa ertak obrazlari va syujetlarining qadimiy mifologik qatlam bilan bog'liqligini ko'rsatib, ularni xalq tafakkurining tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy aloqada tahlil qilgan. K. Imomov va Sh. Turdimovlarning tadqiqotlarida esa ertaklarda aks etgan axloqiy ideal va milliy mentalitet masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Italyan folklorshunosligida xalq ertaklarini tizimli o'rganish XIX asr oxirida G. Pitrè faoliyati bilan boshlangan bo'lib, u italyan folklorini hududiy va ijtimoiy qatlamlar asosida tasniflashga harakat qilgan. XX asrda esa Italo Kalvino tomonidan tuzilgan "Fiabe italiane" to'plami italyan xalq ertaklarini ilmiy muomalaga kiritishda muhim bosqich bo'ldi. Kalvino ertaklarni nafaqat syujet jihatidan, balki ularning ijtimoiy, axloqiy va madaniy funksiyalarini hisobga olgan holda tahlil qiladi. Uning fikricha, italyan ertaklari "real hayot bilan fantaziya o'rtasidagi muvozanat"ni aks ettiradi va ular orqali italyan jamiyatiga xos pragmatik tafakkur va individual tashabbus yaqqol namoyon bo'ladi.

Arxetiplar nazariyasiga asoslangan tadqiqotlar xalq ertaklarini chuqurroq anglash imkonini beradi. K.G.Yung tomonidan ishlab chiqilgan "kollektiv g'ayrushuriylik" konsepsiyasi ertaklardagi takrorlanuvchi obraz va syujet modellarini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu nazariya doirasida "Qahramon", "Soya", "Donishmand" kabi arxetiplar insoniyat tajribasining universalligini ifodalasa-da, ularning konkret madaniyatdagi talqini milliy mentalitet bilan chambarchas bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Ertaklarning strukturaviy umumiyligini V. Propp o'zining "Ertak morfologiyasi" asarida ilmiy asoslab bergan bo'lsa, J. Campbell tomonidan ishlab chiqilgan "Qahramon safari" modeli qahramonlik syujetining universal bosqichlarini aniqlaydi. Biroq mazkur yondashuvlar ko'pincha umumiy tipologiya bilan cheklanib, alohida milliy madaniyatlarda arxetiplarning mazmuniy transformatsiyasini yetarli darajada ochib bermaydi. Shu nuqtai nazardan, o'zbek va italyan xalq ertaklarini arxetiplar va qahramonlik modeli asosida qiyosiy tahlil qilish, ularning milliy mentalitet bilan bog'liqligini aniqlash bugungi folklorshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari uchun dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirish, ya'ni ikki xalq ertaklaridagi universal arxetiplarning milliy talqinini ochib berish maqsad qilib qo'yilgan.

ASOSIY QISM

Arxetip (yunoncha arche – boshlanish, typos – nusxa, namuna) – bu insoniyatning ibtidoiy davrlaridan buyon ongosti qatlamlarida shakllangan universal obraz va syujet sxemalaridir. Arxetiplar masalasi folklorshunoslik va madaniyatshunoslikda muhim metodologik vosita hisoblanadi. Xalq ertaklari ana shu arxetiplarning eng barqaror va eng qadimiy ifoda shakllaridan biridir. Folklor matnlarida arxetiplar nafaqat badiiy obraz, balki ijtimoiy xulq-atvor modeli, axloqiy me'yorlar tizimi va mental stereotiplarni uzatish vazifasini bajaradi. Shu bois arxetiplarni tahlil qilish orqali xalq tafakkurining ichki mexanizmlarini ochib berish mumkin. Arxetip tushunchasi zamonaviy gumanitar fanlarda transdisiplinar kategoriya sifatida talqin qilinadi. Analitik psixologiya doirasida ishlab chiqilgan ushbu konsepsiya folklorshunoslikda mental strukturalarni rekonstruksiya qilish vositasi sifatida qo'llaniladi. Karl Gustav nazariyasiga ko'ra, arxetiplar-bu tarixiy tajriba davomida kollektiv g'ayrushuriylikda shakllangan, barqaror semantik yadrolarga ega psixik modellardir. Folklor matni ushbu arxetiplarning semiotik realizatsiya maydoni hisoblanadi. Ertak syujetlari va obrazlarida arxetiplar individual qahramonlar orqali emas, balki ijtimoiy xulq-atvorning normativ modeli sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli ertaklarni arxetipik tahlil qilish - bu badiiy obrazni emas, balki xalq tafakkurining strukturaviy mexanizmini tahlil qilishdir.



Bu qarashlar Vladimir Propp tomonidan ishlab chiqilgan funksional yondashuv bilan uzviy bog‘liq. Propp ertak qahramonlarini individual shaxs sifatida emas, balki funksiyalar tashuvchisi sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv arxetiplarning shaxsdan ustun turuvchi, umumiylik xarakteriga egaligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

O‘zbek xalq ertaklarida qahramon arxetipi aksiologik jihatdan normativ xarakterga ega. Ya’ni qahramon shunchaki syujet harakatlantiruvchisi emas, balki ijtimoiy-axloqiy idealning personifikatsiyasi hisoblanadi. Bu holat o‘zbek mentalitetiga xos bo‘lgan kollektivizm va axloqiy mas’uliyat paradigmasi bilan belgilanadi. Masalan, “Uch og‘ayni botirlar” ertagi struktural jihatdan tahlil qilinganda, unda qahramonlik funksiyasi individual muvaffaqiyat bilan emas, balki ijtimoiy muvozanatni tiklash bilan yakunlanadi. Kenja botir obrazi bu yerda Propp terminologiyasi bilan aytganda, nafaqat “kurashuvchi”, balki “tartib o‘rnatuvchi” funksiyasini bajaradi. Uning g‘alabasi shaxsiy manfaat emas, balki jamoa farovonligi bilan baholanadi. Shuningdek, “Semurg” ertagida qahramon arxetipi milliy model asosida shakllanadi. Qahramon sinovlar orqali faqat jismoniy emas, balki ma’naviy transformatsiyadan o‘tadi. Bu jarayonda “Donishmand yordamchi” arxetipi faol ishtirok etib, qahramonning yetilishi ijtimoiy tajriba orqali amalga oshirishini ko‘rsatadi. Ushbu model o‘zbek folklorida “komil inson” konsepsiyasining arxaik ildizlarini ochib beradi. Italiyan xalq ertaklarida qahramon arxetipi aksiologik emas, balki pragmatik-semiotik xarakterga ega. Bu ertaklarda qahramonning tarbiyaviy boyligi emas, balki vaziyatlardan chiqib olish kompetensiyasi markaziy o‘rinni egallaydi. Ushbu xususiyat Italo Kalvino tomonidan tuzilgan “Fiabe italiane” to‘plamida tizimli ravishda kuzatiladi.

Masalan, “Giovannin senza paura”(Qo‘rqmas Jovannin) ertagi qahramonlikning klassik jasorat modeli bilan emas, balki emotsional neytrallik va ratsional qaror qabul qilish orqali rivojlanadi. Qahramon qo‘rquvni yengmaydi, balki uni inkor qiladi. Bu holat italyan madaniyatiga xos bo‘lgan l’ingegno (topqirlik) tushunchasining arxetipik ifodasidir.

“Gallo Kristallo” ertagida esa qahramonlik modeli bevosita ijtimoiy harakatlar bilan bog‘lanadi. Qahramonning sinovlardan o‘tishi ijtimoiy iyerarxiyani buzish va qayta konfiguratsiya qilishga xizmat qiladi. Bu yerda ertak syujeti ijtimoiy strukturani tanqid qilish funksiyasini bajaradi, ya’ni qahramon arxetipi ijtimoiy transformatsiya agenti sifatida namoyon bo‘ladi. Soya arxetipi har ikki madaniyatda mavjud bo‘lsa-da, uning semiotik ifodasi tubdan farqlanadi. O‘zbek ertaklarida Soya tashqi, ob‘ektivlashtirilgan yovuzlik sifatida - Dev, Ajdaho obrazlarida namoyon bo‘ladi. Bu obrazlar ontologik yovuzlik tushunchasiga mos keladi va ular bilan kurash faqat jismoniy emas, balki axloqiy bog‘liqlikni talab etadi.

Italiyan ertaklarida esa Soya ko‘pincha ichki va ijtimoiy xarakterga ega. “Naso d’Argento” ertagida yovuzlik taqiqlar va manipulyativ diskurs orqali amalga oshiriladi. Bu holat Soya arxetipining psixologik transformatsiyasini ko‘rsatadi: yovuzlik tashqi kuch emas, balki ijtimoiy munosabatlar ichida yashiringan mexanizm sifatida talqin qilinadi. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, har ikki madaniyatda qahramon sinovlardan o‘tadi, biroq bu jarayonning teleologik yo‘nalishi farqlidir. O‘zbek ertaklarida qahramonlik modeli jamiyatni normativ holatga qaytarishga xizmat qilsa, italyan ertaklarida u mavjud tizim ichida individual moslashuv va muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ertaklar har bir millatning hayotiy falsafasini saqlovchi kodlardir. Ularni qiyosiy o‘rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki madaniyatlararo muloqotni tushunish va xalqlarning psixologik portretini chizishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Propp, V. (1968). Morphology of the Folktale. University of Texas Press.
2. Campbell, J. (2004). The Hero with a Thousand Faces. Princeton University Press.



3. Calvino, I. (1956). *Fiabe italiane*. Einaudi.
4. Afzalov, M. (1964). O‘zbek xalq ertaklari haqida. Fan nashriyoti.
5. Imomov, K. (1984). O‘zbek xalq ertaklari poetikasi. Fan nashriyoti.
6. Zarifov, H. (1955). O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. O‘quv-pedagogika nashriyoti.
7. Turdimov, Sh. (2012). *Ertak va hayotiy haqiqat*. Cho‘lpon nomidagi NMIU.
8. Pitre, G. (1875). *Fiabe, novelle e racconti popolari siciliani*. Pedone-Lauriel.
9. <https://www.google.com/search?q=https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/11-o-zbek-xalq-ertaklari>
10. <https://www.treccani.it/enciclopedia/fiaba/>
11. <https://www.folklore.ee/folklore/>